

REFLEKSIV YONDASHIV ASOSIDA TALABALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Nazarov Odil Omanqulovich – p.f.f.d. (PhD).

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM.

odil.nazarov.89@list.ru

Mustafayeva Dilafruz Kuchimovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti 1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga yo‘naltirilgan va faollashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar shuningdek, sog‘lom turmush tarzinining tartib qoidalarini amaliyotga tadbiq qilish refleksiv to‘g‘risida fitkr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: refleksiv kompetensiya, korreksiya, reproduktiv, produktiv, kreativ, uzviylik, uyg‘unlashtirish.

ABSTRACT

This article discusses measures aimed at the formation and activation of a healthy lifestyle among students, as well as the reflexive implementation of the rules of a healthy lifestyle in practice.

Keywords: reflexive competence, correction, reproductive, productive, creative, coherence, harmonization.

KIRISH

Talabalarda sog‘lom turmush tarzi qirralarining yaxlit shakllanishi ularda sog‘lom turmush tarzi madaniyatining tarbiyalanganligi mezonidir. Sog‘lom turmush tarzi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, falsafa va ijtimoiy soha vakillari tomonidan ijtimoiy hayotning asosiy tarkibiy qismi, global ijtimoiy muammo sifatida tadqiq qilingan. Sog‘lom turmush tarzi madaniyati – sog‘lom turmush tarzining yuqori ko‘rsatkichi bo‘lib, u insoniyatning paydo bo‘lishi bilan hayotiy ehtiyojga aylanib qolgan ma’naviy va jismoniy salomatlik haqidagi umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarning mazmun va mohiyatini chuqur bilish, rejali hayot kechirish qoidalariga to‘liq rioya etgan holda ularni kundalik hayotiy ehtiyojga aylantirish, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish, o‘z ma’naviy va jismoniy salomatligini muhofaza etish malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lish, sog‘lom fikr, ong, tafakkur mahsuli bo‘lib, shaxsning barkamolligini namoyon etuvchi faol hayot tarzidir. Talabalarning biologiya o‘quv fan dasturi bilan me’yorlangan muayyan bilim,

ko'nikma, malakalarni puxta o'zlashtirishga, o'qitishning barcha shakllarida dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalariga ega bo'lish imkoniyati mavjud. Bu o'rinda sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish quyidagi funksiyalar asosida amalga oshiriladi:

- bilimlarni tiklash – biologik ta'lim mazmunida ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar orqali sog'lom turmush tarzi yuzasidan olgan bilimlarni tiklash, tahliliy va mantiqiy fikrlashga o'rgatish;
- bilimlarni yangilash – sog'lom turmush tarzi yuzasidan avval o'zlashtirgan bilimlarini kengaytirish, aniq dalillar asosida rivojlantirish;
- bilimlarni korreksiyalash – sog'lom turmush tarzi yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini tahlil qilish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etib borish;
- bilimlarga amal qilish – sog'lom turmush tarzi yuzasidan olgan bilimlariga turmush tarzi davomida amal qilish orqali shaxsiy e'tiqodga aylantirish;
- bashorat qilish – sog'lom turmush tarzi omillarining shaxsiy e'tiqodga aylantirilishi kelgusida aqlan va jismonan sog'lom bo'lish, turli xil kasalliklarni bartaraf etish va uzoq umr ko'rish, ma'naviy buzg'un g'oyalardan chetlanish, bunyodkor g'oyalarga ega bo'lishni nazarda tutadi.

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirish jarayoni

mazkur funksiyalar orqali quyidagicha amalga oshirilishi maqsad qilib olindi

Sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish funksiyalari asosida o'smirlar bilimini

nazorat qilish

| O'quv maqsadlari | Bilish kompetensiyalari | Darsdagi nazorat turi | Topshiriq darajasi |
|----------------------|--|---|---|
| Bilimlarni tiklash | Ob'ektlarni tanish va izohlash, jarayonlarni tushunish, tanish, izohlash. Sog'lom turmush tarzi va ekologik bilimlarni bilish | Test topshirig'i Og'zaki javob Klaster tuzish | Reproduktiv Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja |
| Bilimlarni yangilash | Ob'ektlar, hodisa va jarayonlarni tushunish va izohlash. Nosog'lom turmush tarzi asoratlari va ekologik muammolarni tushunish | Klaster tuzish Venn diagramma Masalalar yechish Venn diagrammasi | Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja |

| | | | |
|---------------------------|--|---|--|
| Bilimlarni korreksiyalash | Ob'ekt, hodisa, jarayonlar ustida kuzatish va tajriba o'tkazish. O'z salomatligini asrash, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, oddiy ekologik tajribalar o'tkazish | Og'zaki javob Klaster tuzish | Reproduktiv Produktiv Qisman-izlanishli Kreativ daraja |
| Bilimlarga amal qilish | Ob'ekt, hodisa, jarayonlarni taqqoslash, ob'ektlarni qismlarga ajratish, o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish, ob'ekt, hodisa, jarayonlarni qiyoslash | Venn diagrammasi Klaster tuzish | Qisman-izlanishli Kreativ daraja |
| Bashorat qilish | Ob'ektlarni sistematik guruhlarga ajratish, ob'ekt, hodisa, jarayonlar haqidagi bilimlarni umumlashtirish | Klaster tuzish Venn diagrammasini tuzish | Qisman-izlanishli Kreativ daraja |
| Xulosalash | Ob'ekt, hodisa, jarayonlar haqida umumiyl xulosa yasash | Og'zaki javob | Reproduktiv Produktiv qisman-izla-nishli kreativ daraja |

Ushbu jadvalda o'quv maqsadlari, biologik kompetensiyalarni tarkib toptirish bosqichlarida foydalaniladigan o'quv topshiriqlari, oraliq nazoratda kompetensiyalarni nazorat qilish uchun foydalaniladigan nostandard test topshiriqlarining turlari va ularning murakkablik darajalari o'z aksini topgan. O'quv topshiriqlarini "My test" dasturi orqali amalga oshirish sog'lom turmush tarzi yuzasidan o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholashda o'quvchining o'quv-bilish faolligini oshirish imkonini beradi.

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilishiga qaramay, yoshlar o'rtasida turli xil axloqiy tarbiyaning yomonlashuvi, giyohvandlik, ichkilikka ruju qo'yish, jinoyat yo'liga kirish, organizm jismonan va ma'nан rivojlanishining sustlashuvi yoki erta balog'at yoshiga yetish alomatlari (jinsiy tarbiyaning buzilishi, ota-onalarning farzandlar tarbiyasiga e'tiborsizligi) kabi salbiy holatlar kuzatilmoxda. Bunday holatlar aksariyat yoshlar bo'sh vaqtining mazmunli tashkil etilmasligi, darsdan tashqari vaqtarda bolalarni sportga, fanlarga oid to'garaklar bilan band etmaslik va ota-onalarning o'z farzandlarini nazoratsiz qoldirishi kabilar sabab bo'ladi. Natijada salomatlikning yomonlashuvi, turli xil kasalliklarning kelib chiqishi, shuningdek, noplak yo'lga yetaklovchi omillar mavjud bo'lib, bular nosog'lom turmush tarzining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini tarkib toptirishning asosiy vazifasi ta'lim-tarbiya uzviyiligi asosida ma'nан va jismonan sog'lom, o'z

salomatligini saqlaydigan va qadrlay oladigan komil shaxsni tarbiyalashdan iborat. Mazkur jarayonda sog‘lom turmush tarzi yuzasidan bilimlar, ijodiy faoliyat usullari va ta’lim- tarbiya uzviyliги asosida o‘qitish tamoyillaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb belgilandi. Shuni qayd etish kerakki, o‘qitish tamoyillari – o‘qitish tizimining tuzilishi, mohiyati, uning qonuniyatlari haqidagi, shuningdek, faoliyatni tashkil etadigan, amaliyotni boshqarishda namoyon bo‘ladigan bilimlar majmuasi sanaladi. Talabalarda sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish jarayonida tayaniladigan **didaktik tamoyillar** (takomillashgan varianti)ning tavsifi va tahlili quyidagilardan iborat.

Ilmiylik tamoyili – talabalarda sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish jarayoni mazmuniga asos bo‘ladigan va amaliy ahamiyati yoritilgan ilmiy bilimlar, faktlar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalarni o‘rganishni kafolatlaydi.

Tizimlilik tamoyili — talabalarda sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirishda odam organizmini biologik sistema sifatidaturli tuzilish va murakkablik darajasida o‘rganish, shuningdek, o‘qitish jarayonining barcha tarkibiy qismlari: o‘qitish maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini tizim shaklida tasavvur qilish va foydalanishni ko‘zda tutadi.

Ko‘rgazmalilik tamoyili – talabalarda sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirishda tabiiy, tasviriy, tarqatma, didaktik va dinamik materiallar, multimedia vositalaridan foydalanishni ko‘zda tutadi.

Ta’lim va tarbiyaning uzviyliги tamoyili – ta’lim jarayonining metodik ta’minoti va boshqarilishida samaradorlikka erishish, o‘quvchilarni tarbiyalash, aqlan, ma’nana, ruhan va jismoniy rivojlantirish muammolarini hal etishni ko‘zda tutadi.

Onglilik tamoyili — talabalarda sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirishda o‘qitishning samarali metodi va vositalari o‘quvchilar tomonidan bilimlarni ongli o‘zlashtirishiga zamin tayyorlaydi.

Tushunarilik tamoyili — talabalarda sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish jarayonida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarning oldini olish uchun qo‘llaniladi.

Uzviylik tamoyili — talabalarda sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish jarayonida o‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilimlari bilan o‘rganilayotgan mavzudagi bilimlar o‘rtasidagi bog‘lanish bo‘lishini, shuningdek, ta’lim mazmuni o‘rtasida uzviylik bo‘lishini nazarda tutadi.

Uyg‘unlashtirish tamoyili – talabalarda sog‘lom turmush tarzini tarkib toptirish jarayonida yalpi o‘qitish bilan bir qatorda, o‘quvchilarning individual va guruhlarda mustaqil ishlarini tashkil etishni taqozo etadi.

Insonparvarlashtirish tamoyili — talabalarning bilim olishi, tarbiyalanishi va rivojlanishi uchun qulay psixologik muhit yaratish, har bir o‘quvchining o‘z imkoniyati darajasida ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishga imkon yaratadi.

Demokratlashtirish tamoyili — talabalarda sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning fuqarolik huquqlarini tenglashtirish, o‘quvchilar tomonidan o‘z fikrini erkin bayon etish, o‘quv topshiriqlarini bajarishda tanlash huquqini berishni taqozo etadi.

Tayaniladigan didaktik tamoyillar asosida darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib toptirishning metodlari, vositalari, shakllarining uzviyligi va tizimli tashkil etilishini taqozo etdi.

ADABIYOTLAR

1. Mekhriniso Qoyilova. The need for professional competence development in the training of senior nurses. Jamiyat va innovatsiyalar – Общество и инновации – Society and innovations Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>
2. Qoyilova Mekhriniso Djuraevna MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 17 Oct 2021 Copyright (c) 2021 METHODS OF FORMATION OF POSITIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS.
3. Koilova , M. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITIES IN THE TRAINING OF SENIOR NURSES THROUGH THE STRUCTURAL ANALYSIS OF PROFESSIONAL COMPETENCE AND PROFESSIONAL MOBILITY. Yevraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy,3(9), 137–
4. Qoyilova, M. (2024). PEDAGOGICHESKAYA OSNOVA ZDOROVESOZIDA YUЩEY FUNKSII OBRAZOVANIYa. sentralnoaziatskiy jurnal akademicheskix issledovaniy, 2(12), 142–149.
5. D. Kalandarova, & D. Karimov (2022). BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA MULTIMEDIADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI. Science and innovation, 1 (B8), 2276-2279. doi: 10.5281/zenodo.7445311
6. Kalandarova, D. S., & Bakayeva, S. B. (2022). BIOLOGIYA O‘QITISH METODIKASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O’RNI. Central Asian Academic